

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY SUDLARI TOMONIDAN PUDRAT SHARTNOMALARIDAN KELIB CHIQQAN NIZOLARNING KO'RIB CHIQUILISH TENDENSIYALARI (2021-2025 YILLAR ORALIG'I)

ТЕНДЕНЦИИ РАССМОТРЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИМИ СУДАМИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН СПОРОВ, ВЫТЕКАЮЩИХ ИЗ ДОГОВОРОВ ПОДРЯДА (ЗА ПЕРИОД 2021-2025 гг.)

TRENDS IN THE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM CONTRACTING AGREEMENTS BY THE ECONOMIC COURTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (2021-2025)

G'aybullayev Farruxmirzo Faxriddin o'g'li

"VERITAS INTER LEX" advokatlik firmasi Advokati, Professional mediator, Huquq magistirie-pochta:Abdurashid.lawyer@gmail.com,telefon raqam:+99893 938 19 190RCID:

Annotatsiya: *Ushbu tezisda 2021-2025 yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlari tomonidan pudrat shartnomalaridan kelib chiqqan nizolarning ko'rib chiqilish tendensiyalari muallif ishtirok etgan sud ishlari orqali tahlil qilinadi. Tahlil qilish jarayonida yillar o'tgayin sari iqtisodiy sudlari tomonidan pudrat shartnomalarini tartibga soluvchi qonun normalarining va Oliy sud Plenumining qarorlarida keltirilgan tushuntirishlarni amaliyotga tadbiq etishga o'zgarishlar muhokama qilinadi. Yakunda asoslantirilgan takliflar taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *Pudratchi, Buyurtmachi, pudrat shartnomasi, sud, nizo.*

Аннотация: *В данной тезисе анализируются тенденции рассмотрения споров, возникающих из подрядных договоров, экономическими судами Республики Узбекистан в период с 2021 по 2025 годы на основе судебных дел, в которых принимал участие автор. В процессе анализа обсуждаются изменения в применении норм законодательства, регулирующих подрядные договоры, и разъяснений, приведённых в постановлениях Пленума Верховного Суда, с течением времени. В заключение представлены обоснованные предложения.*

Ключевые слова: *Подрядчик, Заказчик, договор подряда, суд, спор.*

Annotation: *This thesis analyzes the trends in the resolution of disputes arising from contracting agreements by the economic courts of the Republic of Uzbekistan during the period 2021-2025, based on court cases involving the author. The analysis discusses changes over time in the application of legal norms regulating contracting agreements and the explanations provided in the decisions of the Plenum of the Supreme Court. Well-founded recommendations are presented in conclusion.*

Keywords: *Contractor, Client, construction contract, court, dispute.*

So'nggi besh yillikda tadbirkorlar o'rtasida shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqqan nizolar sudlarda ko'rib chiqish holatlari ko'paymoqda. Respublika bo'yicha 2021 yilda iqtisodiy sudlarning birinchi instansiyasida 175 443 dona ish ko'rilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 436 086 dona ish ko'rilgan .

Shundan 2021 yilda pudrat shartnomalaridan kelib chiqqan nizolarga oid 2 824 dona sud ishlari birinchi instansiya sudlarida yakunlanganligi, 2024 yilda esa 5 195 dona ayni shu toifadagi ishlar birinchi instansiya sudlarida ko'rib chiqilganligi to'g'risida Oliy sudning rasmiy veb saytida ma'lumot taqdim etilgan. Bundan ko'raki 2021-2024 yillarda pudrat shartnomalari bo'yicha nizolarni sud tartibida hal qilish holatlari o'sish tendensiyasida.

Biroq, ish hajmining sudlarda oshib borishimi yoki boshqa holatlar ta'siridami, so'nggi 2025 yilga kelib taraflardan biri davlat tashkiloti bo'lgan holatlarda ishlarning ko'rish sifati anchagina o'zgarranligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur maqolada keltiriladigan ishlar shaxsan muallif ishtirokida ko'rib chiqqan ishlar bo'lib, so'nggi yillarda pudrat shartnomalari bo'yicha kelib chiqqan nizolarni sudlarda qanday ko'rib chiqilayotganligini yoritishga harakat qilinadi.

Bevosita sud ishlarini ko'rish bo'yicha yondashuvlarga o'tsak, 2022 yilda tadbirkorlik subyekti va buyurtmachi davlat tashkiloti bo'lgan pudrat munosabatlariga oid bir sud ishi ko'rib chiqilgan bo'lib, mazkur sud ishi yakuni bo'yicha sudlar tomonidan garchi taraflar o'rtasida shartnoma tuzilmagan bo'lsada, davlat tashkiloti qurilish ishlari olib borish bo'yicha hukumatning qarori bilan buyurtmachi deb belgilanganligi, buyurtmachi tomonidan loyiha hujjatlari ekspertizadan o'tkazilganligi, qurilish uchun yer ajratish yuzasidan tuman hokimligiga murojaat qilingan holatlar va bajarilgan ishlar bo'yicha nazorat o'lchovi o'tkazilganligini inobatga olib, da'vo arizasi qanoatlantirib berilgan.

Biroq, 2024 yilda ko'rilgan yuqoridagi ishga ayni o'xshash bo'lgan boshqa bir sud ishida esa, Oliy sud tomonidan quyi sudlarning qarorlari bekor qilinib, qayta ko'rib chiqish uchun kassatsiya instansiyasiga ishni yuborgan va yakunda ishlar bajarilganligi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lsada, taraflar o'rtasida shartnoma tuzilmaganligi vajidan da'vo arizasini qanoatlantirishdan rad etilgan.

Bunday holatlar bir necha yillar davomida ko'rilgan ayrim ishlarda ham ko'rish mumkin. 2023 yil boshlarida ko'rib chiqilgan pudrat ishlari bo'yicha nizoda ham avval quyi sudlar tomonidan da'vo arizasi qanoatlantirilgan bo'lsada, Oliy sud tomonidan quyi sudlar qarorlarini bekor qilib, ishni apellyatsiyada ko'rish uchun yubormoqda va apellyatsiya instansiyasida ishni avval ko'rib da'voni qanoatlantirib bergan sudyalarning o'zi ayni shu da'vo arizasi talabini qanoatlantirishni rad etganligini ko'rishimiz mumkin.

Buyurtmachi davlat tashkiloti bo'lgan pudrat shartnomasiga oid yana keng tarqalgan nizoli holat bu pudrat shartnomalarini gazzachilik xizmatidan ro'yxatga qo'yilmaslik holati. Mazkur toifadagi nizolar uchun ham sudlarda 2021-2023 yillardagi amaliyot 2024-2025 yillardagi amaliyotdan keskin farq qiladi.

Sudlar tomonidan 2024–2025 yillardagi sud ishlarini ko'rishda qonunchilik normalari doim ham o'z o'rnida qo'llanilmasdan kelmoqda. E'tiborli jihati 2025 yil 10 aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining "Iqtisodiy sudlar tomonidan qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 306-sonli qaroriga ayrim o'zgartirish va to'ldirishlar kiritish orqali tegishli tartibda gaznachilik xizmatidan ro'yxatga qo'yilmagan shartnomalar bo'yicha amalda bajarilgan ishlar haqini (zarar)ni undirish to'g'risidagi da'vo talablar ham rad etilmoqda.

2024 yil va 2025 yillarda sudlarda amalda bajarilgan ishlar haqini undirish bo'yicha Fuqarolik kodeksining talablariga rioya qilinmasdan, ya'ni bitimning notarial shakliga yoki uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talabiga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqarishi va bitim haqiqiy bo'lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani asliicha (shu jumladan olingan narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlar qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart ligi belgilangan bo'lsa, da'vogar tomonidan da'vo ariza kiritilayotganda ro'yxatdan o'tmagan shartnoma bo'yicha asosiy qarzni Javobgardan undirishni so'raganligini, mazkur holatlarda shartnoma bo'yicha asosiy qarz undirib berilmasligini asos qilgan holda yuqoridagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo'llamasdan kelmoqda.

Biroq, yuqoridagi keltirilgan toifadagi ishlar 2021–2023 yillar oralig'ida sudlarda ko'rilganda davlat tashkiloti buyurtmachi bo'lgan pudrat shartnomasi tegishli tartibda gaznachilikdan ro'yxatga qo'yilmagan bo'lsa ham sudlar tomonidan Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining "Xo'jalik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 203-sonli qaror talablarini va Fuqarolik kodeksining 112 va 114-moddalari talablarini qo'llagan holda amalda bajarilgan va tegishli tartibda tasdiqlangan-isbotlangan pudrat ishlarining qiymatini Buyurtmachidan undirib berish bo'yicha ko'plab qarorlar qabul qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rilayotganda agar shartnoma taraflaridan biri davlat buyurtmachisi toifasiga kirsam va nizoli shartnoma tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilmaganligi aniqlansa, da'vo talabida asosiy qarz yoki bajarilgan ishlar haqini undirish deb yozilganidan qat'iy nazar, Da'vogar tomonidan ishlar amalda bajarilganligi isbotlansa va ishlar qiymati aniqlangan bo'lsa da'vo talabini qanoatlantirish bo'yicha qaror qabul qilish lozimligi bo'yicha Fuqarolik kodeksining 114-moddasiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining "Iqtisodiy sudlar tomonidan qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 306-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy

xo'jalik sudi plenumining "Xo'jalik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 203-sonli qaroriga tegishli o'zgartirishlar kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Natijada da'vogarlarning sarsongarchiligi kamaygan hamda qonunchilik bilan o'rnatilgan tadbirkorlik subyektining huquqlarini tiklashning samarali usullaridan biri vujudga kelardi hamda sudlarda yillar davomida ayni bir xil ishlar uchun turli xil yondashuv kamayishiga olib kelingan bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/111189> (murojaat etilgan sana: 10.07.2025 y.)
2. <https://stat.sud.uz/economical> (murojaat etilgan sana: 17.07.2025 y.)
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 23.12.2016 yildagi 306-sonli qarori, <https://lex.uz/ru/docs/3106543> (murojaat etilgan sana: 18.07.2025 y.)
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 18.12.2009 yildagi 203-sonli qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-2026051> (murojaat etilgan sana: 19.07.2025 y.)
5. O'zbekiston Respublikasining Davlat xaridlari to'g'risidagi 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son qonuni <https://lex.uz/docs/-5382974> (murojaat etilgan sana: 22.07.2025 y.)
6. <https://sud.uz/mediation-arbitration/arbitration/> (murojaat etilgan sana: 15.07.2025 y.)